



## Measures to enhance collaboration in uncovering customs-related crimes

Farkhod GAFUROV<sup>1</sup>

Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan

### ARTICLE INFO

#### Article history:

Received October 2024

Received in revised form

15 November 2024

Accepted 25 November 2024

Available online

25 December 2024

#### Keywords:

crime, criminal offenses,  
customs-related crimes,  
operational search activities,  
operational search  
measures,  
operational search methods,  
forensic expert methods,  
inter-agency cooperation,  
international cooperation.

### ABSTRACT

This scientific article elucidates the organizational and legal foundations for establishing interagency and international cooperation in applying operational-investigative and forensic methods to combat crimes in the customs sphere. Additionally, it presents scientifically grounded proposals and recommendations for enhancing interdepartmental and international cooperation in the application of operational-investigative and forensic methods in the fight against customs-related crimes.

2181-1415/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss12/S-pp356-360>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

## Bojxona sohasidagi jinoyatlarni fosh etishda hamkorlikni rivojlantirish choralari

### ANNOTATSIYA

Mazkur ilmiy maqolada bojxona sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashishda tezkor-qidiruv va kriminalistik usullarni qo'llash bo'yicha idoralararo va xalqaro hamkorlikni tashkil etishning tashkiliy-huquqiy asoslari yoritilgan. Shu bilan birga, bojxona sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashishda tezkor-qidiruv va kriminalistik usullarni qo'llash bo'yicha idoralararo va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar yoritib berilgan.

#### Kalit so'zlar:

jinoyatchilik,  
jinoyatlar,  
bojxona sohasidagi  
jinoyatlar,  
tezkor-qidiruv faoliyati,  
tezkor-qidiruv tadbirlari,  
tezkor-qidiruv usullari,  
ekspert-kriminalistik  
usullari,  
idoralararo hamkorlik,  
xalqaro hamkorlik.

<sup>1</sup> PhD, Independent Researcher, Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan. Tashkent, Uzbekistan.  
E-mail: fedya90.ivanov@mail.ru

# Меры по развитию сотрудничества в борьбе с преступлениями в таможенной сфере

## АННОТАЦИЯ

### **Ключевые слова:**

преступность,  
преступления,  
преступления в  
таможенной сфере,  
оперативно-розыскные  
мероприятия,  
оперативно-розыскная  
деятельность,  
оперативно-розыскные  
методы,  
экспертно-  
криминалистические  
методы,  
межведомственное  
сотрудничество,  
международное  
сотрудничество.

В данной научной статье рассматриваются организационно-правовые основы межведомственного и международного сотрудничества в применении оперативно-розыскных и криминалистических методов для борьбы с преступлениями в таможенной сфере. Также представлены научно обоснованные предложения и рекомендации, направленные на развитие такого сотрудничества.

## KIRISH

Bugungi kunda bojxona organlari tomonidan bojxona sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashishda tezkor-qidiruv va kriminalistik usullarni qo'llash bo'yicha idoralararo va xalqaro hamkorlikni tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki hozirgi kunda bojxona sohasidagi jinoyatlarni sodir etish holatlari O'zbekiston Respublikasining ichki hududlarida hamda xalqaro miqyosda faol tus olmoqda.

## ASOSIY QISM

Bugungi kunga qadar, bir qator mahalliy va xorijlik olimlar bojxona sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashishda tezkor-qidiruv va kriminalistik usullarni qo'llash bo'yicha hamkorlik masalalarini tadqiq qilishgan. Xususan, o'zbekistonlik olim V.Karimovning fikriga ko'ra, jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha xalqaro hamkorlik ikki tomonlama, hududiy va ko'p tomonlama darajalarga bo'linadi [1, B-282-283]. Shu bilan birga, rossiyalik olim G.A.Kornilov jinoyatchilikka qarshi kurashishda o'zaro hamkorlik quyidagi 3 guruhga bo'linishini ta'kidlagan va ilmiy-amaliy jihatdan asoslab bergan: ichki idoraviy, idoralararo va xalqaro [2, B-61-63]. Rossiyalik olim I.E.Nikitina o'z tadqiqotida Yevropa ittifoqida davlatlarning tezkor-qidiruv faoliyati va ekspert-kriminalistika sohasidagi hamkorlikning tashkiliy-huquqiy jihatlari hamda hamkorlikni rivojlantirishning yo'nalishlari va strategiyalarini ko'rsatib bergan [3, B-2-28]. Ispaniyalik olimlar Ana I. Cerezo, Javier Lopez, Ahmed Patelning fikriga ko'ra, bugungi kunda jahonda global miqyosda elektron vositalar orqali jinoyatlar sodir etilayotganligi, bunday jinoyatlarga qarshi samarali kurashish xalqaro hamkorlikni taqozo etadi [4, B-1-6].

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, aytadigan bo'lsak, hozirgi kunda bojxona sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashish yo'nalishida tezkor-qidiruv va kriminalistik usullarni qo'llash bo'yicha bojxona organlari tezkor bo'linmalarining boshqa davlat organlari bilan hamkorlik qilishi bo'yicha normativ-huquqiy asoslar yaratilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 25-dekabrda "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi O'RBQ-344-son qonunining 10-moddasida O'zbekiston Respublikasi davlat

bojxona organlariga tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish vakolati berilgan [5, B-2]. Mazkur qonunning 15-moddasida esa tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish uchun ko'rsatilgan asoslardan quyidagi 2 tasi O'zbekiston Respublikasi bojxona organlarining tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi boshqa davlat organlari bilan hamkorlik qilishning huquqiy asoslarini belgilab beradi: tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi boshqa organlarning so'rovnomalari va O'zbekiston Respublikasining jinoyatchilikka qarshi kurash va huquqiy yordam ko'rsatish sohasidagi hamkorlik masalalari bo'yicha xalqaro shartnomalari asosida kelib tushgan so'rovnomalari [6, B-3]. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining "Davlat bojxona xizmati to'g'risida"gi O'RBQ-502-son Qonuni 5-moddasiga ko'ra, "Bojxona organlari o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishda davlat organlari va tashkilotlar, fuqarolik jamiyati institutlari hamda fuqarolar bilan hamkorlik qiladi." deb belgilangan [7, B-1]. O'rganishlar natijasiga ko'ra, bojxona sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashish yo'nalishida tezkor bo'linmalarining boshqa davlat organlari bilan hamkorlik qilish masalalari bo'yicha bugungi kunga qadar ko'plab olimlar tadqiqotlar olib borishgan. Masalan, rossiyalik tadqiqotchi R.Yu. Slesarenko jinoyatchilikka qarshi kurashishda bojxona organlarining boshqa organlar bilan hamkorlik shakllari va Rossiya Bosh Prokuraturasining huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirishning (kordinatsiya qilishning) quyidagi shakllarini ko'rsatib o'tgan: huquqni muhofaza qiluvchi organlar rahbarlarining muvofiqlashtiruvchi yig'ilishlarini o'tkazish, jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha ma'lumot almashish, mahalliy huquqni muhofaza qiluvchi organlarga jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha yordam ko'rsatish, ijobiy tajribalarni o'rganish bo'yicha mintaqalarga hamkorlikdagi tashriflarni amalga oshirish, aniq jinoyatlarni tergov qilish bo'yicha tezkor-tergov guruhlarini tuzish, jinoyat sodir etishga imkon bergan sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish bo'yicha hamkorlikda ommaviy tadbirlar o'tkazish, kadrlar malakasini oshirish maqsadida huquqni muhofaza qiluvchi organlar imkoniyatlaridan o'zaro foydalanish uchun konferensiyalar, seminarlar o'tkazish, jinoyatchilikka qarshi kurashish jarayonida shaxsiy xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha o'zaro yordam ko'rsatish, hamkorlikda buyruqlar, farmoyishlar, axborot xatlari va boshqa boshqaruv-idoraviy hujjatlar chiqarish, hamkorlikda byulletenlar (to'plamlar) va boshqa axborot nashrlarini chiqarish, muvofiqlashtiruvchi faoliyatning kelishilgan rejalarini ishlab chiqish va tasdiqlash [8, B-71]. Shuningdek, bugungi kunda xalqaro hamkorlik asosan, bojxona sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashish yo'nalishida tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish va aniqlangan jinoyat qilmishlar yuzasidan so'rovnoma-ma'lumot almashish yo'nalishida olib borilmoqda. Jumladan, Bojxona qo'mitasining statistik ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilning 1-choragi davomida bojxona organlari Kontrabandaga qarshi kurashish tezkor tuzilmalari xodimlari tomonidan Davlat xavfsizlik xizmati, ichki ishlar organlari hamda Qozog'iston va Rossiya Federatsiyasining bojxona va maxsus xizmatlari xodimlari bilan hamkorlikda 6 ta holatda narkotrafik bilan bog'liq **xalqaro darajadagi "nazorat ostida yetkazib berish"** tezkor-qidiruv tadbiri o'tkazilgan. Mazkur tadbirlar natijasida 186 litr "Amfetamin", 1,05 kg "a-PVP", 252 litr "Metamfetamin", 198 gramm "kokain", 5,2 kg "Mefedron", 458,2 gramm "Efedron" sintetik vositalarining noqonuniy aylanishini oldi olingan.

## XULOSA

Bojxona sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashish yo'nalishida tezkor-qidiruv va kriminalistik usullarni qo'llash bo'yicha bojxona organlari tezkor bo'linmalarining idoralararo va xalqaro hamkorligi ahvolini o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqot

natijasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi Qonunida tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar o'rtasida hamkorlik shakllari ko'rsatilmagan. Yuqoridagi muammoni hal etish bo'yicha quyidagi taklifni qonunchilikka joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar o'rtasida xizmat faoliyatining zarur yo'nalishlarida o'zaro hamkorlikdagi ishlarni faol tashkil etish maqsadida O'zbekiston Respublikasining "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi Qonunini quyidagi tahrirda bayon etilgan **28<sup>2</sup>-modda** bilan to'ldirish:

**"28<sup>2</sup>-modda. Tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarning o'zaro hamkorligi**

Tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar o'z oldilariga qo'yilgan vazifalarni bajarish maqsadida quyidagi yo'nalishlarda o'zaro hamkorlik qiladilar:

**1. Ma'lumot (axborot) almashish** - tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar tomonidan xizmat zaruriyati tufayli og'zaki, yozma va boshqa shakllarda bir-biriga axborot uzatish orqali amalga oshiriladigan faoliyat;

**2. Tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish** - tezkor-qidiruv faoliyatining vazifalarini hal etish maqsadida tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarning o'zaro hamkorligida amalga oshiriladigan harakatlar majmui;

**3. Tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergov va sud organlari bilan hamkorlikdagi ishlar** - tezkor-qidiruv faoliyatining vazifalarini hal etish maqsadida tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergov va sud organlari bilan birgalikda amalga oshiriladigan harakatlar;

**4. Targ'ibot-tashviqot ishlaridagi hamkorlik** - tezkor-qidiruv faoliyatining vazifalarini hal etish maqsadida tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarning o'zaro hamkorligida jinoyatlarni oldini olish, jinoyatlardan ogohlantirish, fuqarolarni qonunlarga rioya qilish ruhida tarbiyalash maqsadida fuqarolar bilan yig'ilishlar o'tkazish, audio-video, multimediya xabarlarini tayyorlash va namoyish etishdan iborat harakatlar;

**5. Ta'lim sohasidagi hamkorlik** - tezkor-qidiruv faoliyatining vazifalarini hal etish maqsadida tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarning o'zaro hamkorligida kadrlar malakasini oshirish, o'quv-uslubiy faoliyat va ilmiy-amaliy seminarlar hamda konferensiyalar tashkil etishdan iborat bo'lgan faoliyat;

**6. Hamkorlikda normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish** - tezkor-qidiruv faoliyatining vazifalarini hal etish maqsadida tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarning o'zaro hamkorligida qo'shma buyruqlar, farmoyishlar, axborot xatlari va boshqa boshqaruv-idoraviy hujjatlar ishlab chiqish va tasdiqlash hamda ijroga qaratish amaliyoti;

**7. Hamkorlikda byulletenlar (to'plamlar) va tezkor-qidiruv faoliyatiga oid axborot nashrlarini chiqarish** - tezkor-qidiruv faoliyatining vazifalarini hal etish maqsadida tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarning o'zaro hamkorligida byulletenlar (to'plamlar) hamda axborot-tushuntirish va statistik ma'lumotlar ko'rinishdagi jurnallar hamda axborotnomalar tayyorlash, nashr etish va tarqatish faoliyati;

**8. Hamkorlikda chora-tadbirlar rejalarini ishlab chiqish va amalga oshirish** - tezkor-qidiruv faoliyatining vazifalarini hal etish maqsadida tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarning o'zaro hamkorligida jinoyatchilikka qarshi kurashish va tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarning vakolatlariga oid vazifalar

bo'yicha hamkorlikdagi chora-tadbirlar rejalarini tuzish va ijro etish faoliyati. Tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarning o'zaro hamkorligi tezkor-qidiruv faoliyati zaruratidan kelib chiqib, boshqa yo'nalishlarda, shuningdek boshqa davlat organlari bilan ham amalga oshirilishi mumkin."

Xulosa qilib aytganda, hozirgi kunda bojxona sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashish yo'nalishida tezkor-qidiruv va kriminalistik usullarni qo'llash bo'yicha bojxona organlari tezkor bo'linmalarining boshqa davlat organlari bilan o'zaro hamkorligi hamda xalqaro hamkorligini tashkiliy-huquqiy jihatdan takomillashtirish zarurati mavjud.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Karimov V. "O'zbekiston Respublikasining "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi qonuniga ilmiy-amaliy sharh". Toshkent-2021-yil. B-282.
2. Kornilov G.A. "Vzaimodeystviye subyektov operativno-rozisknoy deyatelnosti v selyax protivodeystviya transnatsionalnoy prestupnosti". Nauchnaya statya. Vestnik Rossiyskoy Tamojdennoy Akademii. № 1. g. 2015. Str. 61-63.
3. Nikitina I. E. "Sotrudnichestvo yevropeyskix gosudarstv v sfere ekspertno-kriminalisticheskoy i operativno-rozisknoy deyatelnosti v ramkax integratsionnix i mejpravitelstvennix obyedineniy". Dissertatsiya. g. 2018. Str. 2-28.
4. Ana I. Cerezo, Javier Lopez, Ahmed Patel. International Cooperation to Fight Transnational Cybercrime. Conference: Digital Forensics and Incident Analysis, 2007. WDFIA 2007. Second International Workshop on. September 2007. P. 1-6.
5. O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 25-dekabrda "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-344-son qonunining 10-moddasi. 2-bet.
6. O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 25-dekabrda "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-344-son qonunining 15-moddasi. 3-bet.
7. O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 18-oktyabrda yangi tahrirda qabul qilingan "Davlat bojxona xizmati to'g'risida"gi O'RQ-502-son Qonuni, 5-m. 1-bet.
8. Slesarenko R.Yu. "Pravooxranitelnaya deyatelnost tamojennix organov". Diplomnaya rabota. "Tamojennoye delo". st-71. 2016 g.